

IMZOLARNI QALBAKILASHTIRISH USULLARI**Zaynobiddinov Nizomiddin Isomiddin o'g'li**

Toshkent viloyati Ichki ishlar Bosh boshqarmasi

Ekspert-kriminalistika markazi katta eksperti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18505165>

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali men jinoyatlarni sodir etishda jinoyatchilar tomonidan imzolarni soxtalashtirish tushunchasi, usullari, ularni aniqlash usullari, umumiy va xususiy belgilari, ularning ekspertiza o'tkazishdagi ahamiyati xaqida malumot berganman.

Kalit so'zlar: imzo qo'l bilan chamalab taqlid qilish, transkripsiya, chizish, umumiy va xususiy bulgilar, taqlid.

Taqlid — imzosi aks ettirilgan shaxsning harakatlarini qaytarishga urinishdir. Taqlid shaxsda mavjud bo'lgan stereotipni buzish jarayoni bilan bog'liq. Taqlidchi o'zining g'ayriodatiy harakatlarini bajaradi, natijada imzoni bajarish jarayonini nazorat qilish istagi paydo bo'ladi. Dinamik stereotipning qotib qolganligi, ya'ni uning nisbiy turg'unligi taqlid qilish imkonini chegaralaydi va odatda, taqlid bilan bajarilgan imzolarda kuzatiladi. Shu bilan birga, doimiy mashqlar va harakatlarning ishlov darajasining muayyan mos tushishida, shuningdek, dastxatlarning o'xshashligi natijasida ijobiy natijaga erishish mumkin.

Ko'pincha imzoni taqlid qilish orqali qalbakilashtirish quyidagi usullar bilan bajariladi: ko'z bilan chamalab, yoddan, mashqlar natijasida.

«Ko'z bilan chamalab» taqlid — ko'z orqali qabul qilish va uni aks ettirishni bildiradi.

Taqlidning bu turi asosida kuzatilayotgan harf, shtrixlarni, ya'ni imzoning qismlarini chizib olish yotadi. Qalbakilashtiruvchi avval imzoni butunligicha o'rganadi, keyin uni tarkibiy qismlarga bo'ladi, harakatlarni tahlil qiladi va undan keyin uni qalbaki hujjatda xuddi o'ziday tasvirlaydi. Namuna imzoni tasvirlash aniqligi ko'z orqali qabul qilishga, uning o'tkirligi, to'liqligi va aniqligiga bog'liq. Qalbakilashtiruvchi o'zining e'tiborini imzoning tashqi ko'rinishiga qaratadi va odatda, uning individuallashtiruvchi ayrim muhim alomatlarini e'tiborsiz qoldiradi.

Qalbakilashtirilayotgan imzo harakatlarning birlashgan tizimi sifatida tasvirlangani uchun uni bajarish jarayoni alohida harakatlardan tashkil topadi.

Ekspert harakatlar koordinatsiyasining buzilish alomatlarini, bajarilish sur'atining sekinlashishini quyidagilardan aniqlaydi: yozuv qurolining tabiiy bo'lmagan to'xtalishlaridan; alohida harflar, shtrixlarni bajarishda harakatlarning uzilishlaridan; shtrixlarning sinishlari va egriligida aks ettirilgan titrash izlaridan; chizib qo'yilishidan; bosimning notekisligidan.

Shunday qilib, yozuv anjomining to'xtashlari, harfning qandaydir elementi (shtrixi) harakatlarining uzilishi yuzaga kelgan joydagi harakatlarning boshlanish nuqtasining siljishi orqali, past bog'lanish darajasi esa — keyingi harf (shtrix)larning boshlang'ich qismlarida tugagan uzun oxirgi shtrixlar bilan niqoblanadi.

Shuningdek, imzoning bir xil xususiy alomatlari quyidagicha farqlanadi: imzoning boshlang'ich va yakuniy qismlarini bajarishdagi harakatlarning shakli bilan; qo'shimcha shtrixlarni bajarishdagi harakatlarning cho'zilganligi bilan; harakatlarning joylashishi bilan; shuningdek, chizmani bajarishdagi harakatlarning murakkabligi bilan. Shunday qilib, ushbu taqlid turi uchun qalbaki imzo va namuna imzoning tashqi ko'rinishi bo'yicha juda o'xshashligi va xususiy alomatlarda jiddiy farqlar bilan tavsiflanadi.

«Yoddan» taqlid — qalbakilashtiruvchini avval kuzatgan va yodlab olgan boshqa shaxsning nomidagi imzoni tasvirlashdan iborat. Qalbakilashtiruvchi yodida qolgan imzoning shakliga taqlid qiladi. Ushbu taqlid turida imzoni bajarishdagi aniqlik — kuzatish vaqti, yodlashning tavsifi (oldindan o‘ylab yoki o‘ylamasdan), xotiraga va hokazolarga bog‘liq. Ko‘p hollarda qalbaki imzo bilan haqiqiy imzo orasida faqat nisbiy o‘xshashlik bo‘lishi mumkin.

«Yoddan» taqlid bilan bajarilgan imzolar uchun umumiy alomatlar xatning siyrakligi, bog‘langanligidagi va ko‘p xususiy alomatlardagi farqlari bilan tavsiflanadi. Harakatlarning sekinlashishi, koordinatsiyasining buzilishi kabi alomatlar ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Qalbakilashtiruvchi imzoning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi alomatlari: transkripsiya, chizma, harakatlarning yo‘nalishi va umumiy shaklini aks ettiradi. Qalbakilashtirilayotgan imzoda qalbakilashtiruvchi imzosining elementlari namoyon bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, «yoddan taqlid» bo‘yicha bajarilgan imzolar, «ko‘z bilan chamalab» bajarilgan imzolar bilan quyidagilar bilan farq qiladi – oxirgisi haqiqiy imzolar bilan tashqi ko‘rinishi bo‘yicha katta o‘xshashlikka ega, shuningdek, ma‘lum darajada xususiy alomatlar ham mos tushadi.

Mashqlar natijasida imzoning bajarilishi. Mashq maqsadi begona imzoni aks ettirish jarayonini yengillashtirish uchun ma‘lum ko‘nikmalarni ishlab chiqishdan iborat. Mashq — ko‘rinishga oid qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan uzoq davom etuvchi jarayon. Davomiy mashq shunday ko‘nikmani ishlab chiqishga olib kelishi mumkinki, uning natijasida qalbakilashtiruvchi imzoni erkin, koordinatsiyalangan harakatlar bilan bajarishi mumkin, bu esa taqlid qilinganlik faktini aniqlashda qiyinchilik tug‘diradi.

Dastlabki mashq bilan bajarilgan «ko‘z bilan chamalab» qalbakilashtirishda harakatlar koordinatsiyasi buzilishi, sur‘atning sekinlashishi, shuningdek, xususiy alomatlarining farqlanishi kabi belgilar kam darajada namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, masalan, sekinlashish alomati umuman yo‘q bo‘lishi mumkin.

Ishlov darajasi taqlid bilan imzoning bajarilishiga qanday ta‘sir qilishini bilish shart.

Qalbakilashtiruvchining imzosi va namuna imzoning ishlov darajasining bir xilligi taqlid qilishni yengillashtiradi va aksi, agar qalbakilashtiruvchi dastxatining ishlov darajasi yuqori, namuna imzoniki kamishlovli bo‘lsa, unda qalbakilashtirilgan imzoda, namuna imzoga xos bo‘lgan alomatlar kuchliroq namoyon bo‘ladi (ular harakatlar koordinatsiyasining kamayishi natijasida kiritiladi).

Transkripsiyaning ko‘rinishi ham imzoni taqlid bilan bajarish mumkinligiga ta‘sir qiladi.

Shunday qilib, tuzilish nuqtai nazaridan, murakkab harfli transkripsiya imzolar, hatto dastlabki mashq bilan imzoni bajarishda ham katta qiyinchiliklarga ega.

Qoida bo‘yicha, mashqlar natijasida taqlid bilan bajarilgan imzolarda ijrochi dastxatining alomatlari kam qoladi. Lekin bir xil hollarda qalbakilashtiruvchi imzosining chizmasi, shuningdek, harf elementlarining qismlari, harf va shtrixlar uchun xos bo‘lgan alohida xususiy alomatlarining saqlanganligini kuzatish mumkin. Ijrochi imzosining chizmasi va boshqa alomatlarining saqlanib qolishi, shuning uchun sodir bo‘ladiki, mashqlarga qaramasdan, qalbakilashtiruvchi namuna imzo va o‘zining imzosidagi ahamiyatsiz farqlarni sezmaydi va qalbaki imzoni o‘zining ko‘nikmasiga xos bo‘lgan harakatlar bilan bajaradi.

Dastlabki mashq orqali taqlid bilan bajarilgan imzolarda, namuna imzo bilan mos tushishlar kabi farqlar ham kuzatiladi.

Mos tushishlar barcha umumiy va quyidagi xususiy alomatlariga tegishlidir: harfli qismlarning elementlarini va chizmani bajarishdagi harakatlarning tuzilishi bo‘yicha

murakkabligi; shtrix, harf elementining bosh qismini bajarishdagi harakatlarning shakli; bosh harflar va chizmani bajarishdagi harakatlarning yoʻnalishi; harflarni oʻzaro bogʻlashdagi harakatlarning shakli; imzo elementlarini bajarishdagi boshlanish va yakunlash nuqtalarini joylashtirish.

Farqlar asosan xususiy alomatlarga tegishli: harfning elementlarini bajarishdagi harakatlarning yoʻnalishi va shakli; harfning element va shtrixlarini bajarishdagi egiluvchi harakatlar (ogʻishlar)ning nisbiy yoʻnalishi; harflardagi bogʻlanish va kesilish nuqtalarining joylashishi; harakatlarning vertikal boʻyicha choʻzilganligi.

Ekspert chizilishlarga alohida eʼtibor qaratishi kerak. Qalbaki imzolarda chizilishlar alohida puxtalik bilan bajarilganligi va monogrammada, yaʼni murakkab harflarning birikmalarida joylashishi bilan farqlanadi.

Oʻylab chiqarilgan shaxslar nomidagi imzolarda qalbakilashtiruvchi shaxsiy dastxatining alomatlari, shuningdek, uning imzosiga xos boʻlgan alomatlar ham topiladi. Bunday imzolarni gumon qilinayotgan bajaruvchining imzo va dastxat namunolari (erkin, tajribaviy) bilan taqqoslash tadqiqoti natijasida koʻpincha qalbaki imzolar kim tomonidan bajarilganligini aniqlash mumkin.

Oʻylab chiqarilgan shaxslar nomidagi imzolarni alohidaalohida tadqiqot bosqichida, ekspert harflarda, shuningdek, uning harfsiz qismida aks ettirilgan dastxatning barcha alomatlarini oʻrganadi. Alomatlarini oʻrganish ketma-ketligi oddiy imzoni oʻrganish ketma-ketligiga oʻxshash boʻladi. Gumon qilinayotgan ijrochining dastxat alomatlarini oʻrganayotganda, asosiy eʼtiborni tadqiq etilayotgan imzoda mavjud boʻlgan harflar va harf elementlari birikmasiga qaratish kerak.

Koʻpincha oʻylab chiqarilgan shaxslar nomidagi imzolar buzilgan dastxat bilan bajarilgan boʻladi. Bunday qalbaki imzoning ijrochisi oʻz dastxatini yashirishga harakat qiladi. Shuning uchun ekspert imzo tadqiqotiga oʻtishdan oldin ijrochi dastxatida buzilish alomatlari mavjud emasligini aniqlashi kerak.

Buzilishlar tezyozuvli yashirish yoʻli, chap qoʻl yoki bosma shrift bilan bajarish orqali amalga oshishi mumkin. Tezyozuvli yashirish yoʻli orqali dastxat buzilishining oʻziga xos alomatlariga quyidagilar kiradi: harf elementlari va toʻlaligicha harflarning tuzilish murakkabligi, baʼzida esa imzoning yakuniy qismi — chizmaning jimjimadorligi; alohida harflar (elementlar)ning ishlov darajasi tuzilishining imzoning (ishlov darajasining kamayishi mavjudligi) boshqa qismiga nisbatan mos emasligi. Imzo elementlarining tuzilishi boʻyicha murakkab bajarilishi odatda yuqori aniqlikdagi harakatlarni va tez surʼatni talab qiladi, bunday imzoda esa, bu elementlar sekin bajarilgan: alohida takrorlanuvchi xususiy alomatlarning turgʻun emasligi.

Lekin tezyozuvli yashirishda buzilish alomatlarini alohidaalohida tadqiqot bosqichida aniqlash juda ham qiyin va har doim ham imkoni boʻlavermaydi. Bu esa alomatlarning turgʻunligini aniqlashga imkon bermaydigan grafik materialning kichik hajmiga bogʻliq.

Taqqoslash materialini oʻrganish imzoning oʻziga xos boʻlmagan bajarilish alomatlarini aniqlashga maʼlum darajada yordam beradi.

Oʻylab topilgan shaxs nomidagi imzoni chap qoʻl bilan bajarishda ijrochi dastxatining buzilish alomatlarini aniqlash faqat chap qoʻl xati aks ettirilgan alomatlar boʻyicha mumkin.

Bunday alomatlar quyidagicha boʻlishi mumkin: harakatlar koordinatsiyasining pastligi (shtrix va harflarning toʻgʻri chiziqli elementlarining egriligi va sinishi, ovalarning burchaksimonligi); xat surʼatining sekinligi.

Shu bilan birga, bir tomondan, harakatlar koordinatsiyasi pastligi va xat sur'atining sekinligi orasida va, boshqa tomondan, alohida harflarni bajarishda hamda ularning tuzilishi yuqori ishlovli harakat va tez sur'at orasida keskin mos tushmasliklar kuzatilishi mumkin.

Harakatlarning «ko'zgudagidek akslanishi». Bu alomat imzoning chap qo'l bilan bajarilganligi faktini aniqlashda asosiy ahamiyatga ega va, ayni paytning o'zida, imzoning past ishlovli dastxat bilan bajarilganligini, imzoning atayin ishlov darajasini pasaytirib (chap qo'l) bajarilganligini farqlashga imkon beradi.

Taqqoslash materialini alohida-alohida tadqiqot bosqichida o'rganish qandaydir o'ziga xos jihatga ega emas. Dastxat namunalari kabi, gumon qilinayotgan ijrochining imzo namunalaridagi barcha alomatlar o'rganiladi. Shu bilan birga, bunday imzolarga ko'pincha ijrochi o'z imzosining barcha elementlarini kiritishini yodda tutish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/O'zbekiston> Respublikasining Jinoyat-Protsessual Kodeksi 173-187-moddalari;
2. Kriminalistik-Ekspertizalar darslik/ Toshkent 2020/
3. Криминалистика(учебник) \ Москва 1999 г\ ст.
4. <https://library-tsul.uz/ru/kriminalistika-darslik-2018>;
5. КРИМИНАЛИСТИКА ВА ЭКСПЕРТИЗА ДАРСЛИК/Toshkent 2019/ Д.Б.Базарова, И.Р.Астанов